



**XALQARO EKOLOGIK HUQUQ TAMOYILLARNI
O‘ZBEKISTON QONUNCHILIGIDA AKS ETISHI**

Sayfiyev Davron Narzulla o‘g‘li

*Tashkent International Universty Yurisprudensiya yo‘nalishi 2 – bosqich
talabasi*

Ilmiy rahbar:

Boymirzayeva Mohira

Siyosiy fanlar bo‘yicha (PhD)

Email: dsayfiyev553@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada xalqaro ekologik huquq tamoyillarni O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida aks etishi keng yoritilgan bo‘lib, buning natijasida maxsus ekologik qonunlar, Konstitutsiyaviy normalar, xalqaro shartnomalarga a‘zo bo‘lish orqali milliy qonunchiligimizga tatbiq etilganligi, bu esa mamlakatning ekologik barqaror rivojlanish siyosatini xalqaro standartlarga moslashtirishga xizmat qilishiga qaratilganini yana bir bora isboti sifatida guvohi bo‘lishimiz mumkin.

Kalit so‘zlar: Xalqaro ekologik huquq, Konstitutsiya, Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risidagi qonun, Xalqaro konvensiyalar, Orol dengizi.

Hozirgi globallashuv shu darajada rivoj topmoqdaki, ekologik muammolar milliy chegaralar bilan cheklanmaydi. Havo va suv ifloslanishi, iqlim o‘zgarishi, biologik xilma – xillikning kamayishi, turli xil kasalliklarning kelib chiqishi kabi muammolar yuzaga kelishiga sabab bo‘lmoqda, shu maqsadda bu muammolarga davlatlar xalqaro hamkorlikni o‘rnatib, yechim topishi maqsadga muvofiq ish sifatida qaraladi. Ushbu maqolada xalqaro ekologik huquqiy tamoyillarning mazmuni va ularning O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida aks etilishi haqida so‘z boradi. Xalqaro ekologik huquq – bu davlatlar va xalqaro tashkilotlar o‘rtasida atrof – muhitni muhofaza qilish sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi normalar majmuidir. Ushbu huquq sohasi davlatlar zimmasiga ekologik xavfsizlikni ta‘minlash, tabiatga zarar yetkazmaslik va barqaror rivojlanishni amalga oshirish majburiyatini yuklaydi. O‘zbekiston Respublikasi ekologik siyosati xalqaro ekologik huquq tamoyillariga mos ravishda shakllantirilgan bo‘lib xususan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida, Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risidagi qonunda va bundan tashqari Xalqaro shartnomalarda, Konvensiyalarda, Bitimlarda o‘z aksni topganligi bilan ajralib turadi. Ushbu hujjatlarda mustahkamlanishi ekologik muvazanatni saqlanishiga katta xizmat qiladi. Ekologiya haqida gap borganda uni asrash barchamizning birdek burchimiz



ekanligi asosiy qonunimiz bo'lmish Konstitutsiyamizda o'z aksini topganligi ko'zimizda quvonch qalbimizda ishonch hissini uyg'otmasdan qo'ymaydi.

Fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga majburdirlar (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 62 – modda). Shunga qaramasdan ekologiyamizga zarar olib kelayotgan qo'shtirnoq ichidagi ba'zi bir insonlar ham yo'q emas aslida, ko'chalarda duch kelgan joylarga o'zining maishiy chiqindilarini tashlab ketish holatlari kuzatilmoqda go'yoki uni hech kim ko'rmadi, anglamagandek. Aslida bu qonunga zid harakat hisoblanadi.

Tabiatni muhofaza qilishga doir qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlik:

Tabiatni muhofaza qilishning standartlari, normalari, qoidalari va boshqa normativ - texnik talablarini buzishda, shu jumladan korxonalar, inshootlar, transport vositalari va boshqa obyektlarni rejalashtirish, qurish, rekonstruksiyalash, ulardan foydalanish yoki ularni tugatish chog'ida, ekologiya nuqtai nazardan xavfli mahsulotlarni chet ellarga chiqarish va chet ellardan olib kelishda hududning belgilab qo'yilgan ekologiya sig'imi, ekologiya normalari, qoidalarini buzishda;

Tabiiy boyliklardan o'zboshimchalik bilan foydalanishda davlat ekologiya ekspertizasi talablarini bajarmaganlikda;

Tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun belgilangan to'lovni, shuningdek atrof muhitni ifloslantirganlik va unga zararli ta'sir ko'rsatishning boshqa turlari uchun kompensatsiya to'lovlari to'lashdan bosh tortganlikda;

Tabiatni muhofaza qilish obyektlarini qurish rejalarini, tabiatni muhofaza qilishga doir boshqa resurslarni takror ishlab chiqarish choralarini ko'rmaganlikda;

Tabiatni muhofaza qilish ustidan davlat nazoratini amalga oshirayotgan idoralarning ko'rsatmalarini bajarmaganlikda;

Tabiatni muhofaza qilish obyektlari va muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning huquqiy rejimini buzganlikda;

Atrof tabiiy muhitga zararli ta'sirni hisobga olish qoidalarini buzganlikda;

Chiqindilarni, kimyolashtirish vositalarini, shuningdek radiaktiv va zarali kimyoviy moddalarni saqlash, tashish, ulardan foydalanish, ularni zararsizlantirish va ko'mib yuborish vaqtida tabiatni muhofaza qilish talablarini buzganlikda;

Atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish sohasidagi davlat nazoratini amalga oshiruvchi mansabdor shaxslarning obyektlarga borishiga, ayrim shaxslar va tabiatni muhofaza qilish jamoat tashkilotlariga esa o'z huquq va vazifalarni ro'yobga chiqarishga to'sqinlik qilganlikda;

Atrof tabiiy muhitning holati va uning resurslaridan foydalanish to'g'risidagi o'z vaqtida va to'g'ri axborot berishdan bosh tortganlikda aybdor



bo'lgan shaxslar O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga binoan intizomiy, ma'muriy, jinoiy va boshqa turdagi javobgarlikka tortiladilar (Tabiatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonun 47 - modda). Tabiatni muhofaza qilishdan maqsad:

Inson salomatligi uchun, ekologik muvozanatni saqlash uchun, respublikani samarali va barqaror ijtimoiy - iqtisodiy rivojlantirish manfaalari yo'lida tabiatni oqilona va uni ishdan chiqarmaydigan qilib foydalanish uchun qulay shart - sharoitlar yaratish;

Jonli tabiatning turlari va genetik fondi boyligini saqlab qolish;

Ekologiya tizimlari, landshaftlar va noyob tabiat obyektlari xilma - xilligini saqlab qolish;

Ekologiya xavfsizligini ta'minlash;

Tabiat obyektlari bilan bog'liq moddiy meros obyektlarini asrab qolishdir (Tabiatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonun 3 - modda). Bundan chiqdi inson faqat o'zi yashab o'tsa bo'ldi emas balki, kelajak avlodlarga ekologiyani sof va toza holda topshirishimiz barchamizning birdek burchimiz ekanligi doimo oldimizda turgan eng oliy burchimiz va maqsadimiz bo'lish har doim, har daqiqa yodimizda turishi kerak. Misol tariqasida maskur yo'nalishda bugungi kunga qadar qator xalqaro normativ huquqiy hujjatlar ratifikatsiya qilingan. Jumladan, BMTga a'zo davlat sifatida O'zbekiston Respublikasi atrof - muhitni muhofaza qilish bo'yicha quyidagi xalqaro konvensiyalarga va bitimlarga qo'shilgan:

❖ Iqlim o'zgarishi to'g'risidagi Doiraviy konvensiya (1993 - yilda);

❖ Iqlim o'zgarishi to'g'risidagi Doiraviy Kioto protokoli (1999 - yilda);

❖ Ozon qatlamini himoya qilish bo'yicha Vena konvensiyasi (1993 - yilda);

❖ Ozon qatlamini yemiruvchi moddalar bo'yicha Monreal protokli (1993 - yilda);

❖ Ozon qatlamini yemiruvchi moddalar bo'yicha Monreal protokoliga London va Kopengagen tuzatishlari (1998 - yilda);

❖ Biologik xilma - xillik to'g'risidagi konvensiya (1995 - yilda);

❖ Sahrolashishga qarshi kurash to'g'risidagi BMT konvensiyasi (1995 - yilda);

❖ Atrof - muhitga salbiy ta'sir qiluvchi harbiy va boshqa harakatlarni ta'qiqlash haqida Bazel Konferensiyasi (1996 - yilda);

❖ Yo'q bo'lib ketish xavfi ostidagi yovvoyi fauna va flora turlari bilan xalqaro savdo to'g'risidagi konvensiya (1997 - yilda);

❖ Ko'chib yuruvchi yirtqich hayvonlarni himoya qilish bo'yicha konvensiya (1998 - yilda);



❖ Afrika, Yevropa va Osiyodagi ko'chib yuruvchi suv - botqoq qushlarini muhofaza qilish bo'yicha bitim (2003 - yilda).

1992 - yil Rio - de - Janeyro (Braziliya) da -156 mamlakat rahbarlari tomonidan imzolangan “Biologik xilma - xillik to'g'risida” gi konvensiyaga qo'shilgan O'zbekiston Respublikasida (1995 - yil Oliy majlis tomonidan ratifikatsiya qilingan. Vazirlar mahkamasining 1998 - yil, 1- apreldagi 139 - sonli qarori bilan “Biologik rang - baranglikni saqlashning milliy strategiyasi va harakatlar rejasi” ishlab chiqilgan. Biologik xilma - xillik to'g'risidagi xalqaro konvensiyaning maqsadi:

1. Yer kurrasida biologik resurslarning xilma - xilligini saqlash;
2. Xalq xo'jaligi sohalari (qishloq xo'jaligi, o'rmon va baliq xo'jaligi) da biologik resurslardan foydalanishda davlatlar resurslarga va xalqa xo'jaligi sohalariga zarar yetkazmaydigan usullarni qo'llash;
3. Genetik resurslarni ishlatish va ulardan foyda olishda adolatli va teng huquqli usullarning qo'llanilishini rag'batlantirish. Bundan tashqari Orol dengiziga ham bir nazar tashlasak, XX asrning 60 - yillarida Amudaryo va Sirdaryodan Orol dengiziga har yili 56 kub, km suv quyilgan. Aholining sezirarli tarzda ko'payishi, urbanizatsiya, yerlarning shiddat bilan o'zlashtirilishi, ekologik oqibatlarini o'ylamasdan orol dengizi havzasida yirik gidrotexnik va irrigatsiya inshootlarining qurilishi sayyoradagi eng chiroyli havzaning qurishiga olib keldi, va buning natijasida tabiatga juda katta zarar yetkazdi. Mintaqada hayvonot va o'simliklar olami genofondining deyarli yarmidan ko'pi, ya'ni baliqlarning 11 ta, sut emizuvchilarning 12 ta, qushlarning 26 ta va o'simliklarning 11 ta, turi yo'q bo'lib ketganiga guvohi bo'lib turibmiz. Ma'lumot o'rnida shuni aytmoqchimanki “Orolbo'yi mintaqasini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududoga aylantirish bo'yicha qo'shimcha chor - tadbirlar to'g'risida” Vazirlar mahkamasining qarori qabul qilingan bo'lib:

Konsepsiyaning maqsadi ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar, shuningdek, “yashil” va sirkulyar iqtisodiyot tamoyillari asosida Orolbo'yi mintaqasini ekologik va gumanitar inqiroz yuz berayotgan hududdan ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududiga aylantirish bo'yicha konseptual yo'nalishlar va vazifalarni belgilashdan iborat.

Konsepsiyada Orolbo'yi mintaqasini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududiga aylantirish bo'yicha quyidagi asosiy vazifalarni amalga oshirish nazarda tutilgan:

a) Orolbo'yi mintaqasi duch kelayotgan murakkab ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy muammolarni yumshatish hamda bartaraf etish uchun tizimli innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;

b) alohida loyihalar va tarmoq dasturlari o'rniga o'zaro uyg'unlashgan va



bir-biri bilan uzviy bog‘liq kompleks dasturlar va loyihalarni amaliyotga joriy qilish;

v) Orolbo‘yi mintaqasini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududiga aylantirish maqsadida turli sohalarni uyg‘unlashtirish hamda mintaqada faoliyat yuritayotgan idoralararo manfaatlarni birlashtirish;

g) barcha manfaatdor tomonlarning imkoniyatlarini kengaytirish hamda tizimli o‘zgarishlarni amalga oshirishga qaratilgan mahalliy va xalqaro tashkilotlarning sa’y-harakatlarini birlashtirish;

d) xususiy sektor, xalqaro hamjamiyat, fuqarolik jamiyati institutlari, ilmiy doiralar, donorlar, shuningdek, rivojlanish bosqichida an’anaviy va yangi hamkorlar ishtirokida kompleks yondashuvlarni amalga oshirish hamda ko‘p tomonlama hamkorlikni rivojlantirish;

e) respublikaning boshqa hududlaridan kelgan tadbirkorlik subyektlari tomonidan “Qoraqalpog‘istonda biznes qiling” shiori ostida amalga oshiriladigan loyihalarni qo‘llab-quvvatlash va amalga oshirish. Bu kabi amalga oshirilayotgan chora - tadbirlar o‘z samarasini berganligi ko‘zimizda quvonch hissini uyg‘otadi, barchamizning.

Orolbo‘yi mintaqasini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududiga aylantirish bo‘yicha asosiy vazifalar quyidagilardan iborat:

institutsional innovatsiyalarni amalga oshirish — barcha hamkorlar va manfaatdor tomonlar bilan samarali ishlash imkoniyatini beradigan mexanizmlarni amaliyotga tatbiq qilish;

texnologik innovatsiyalar, shu jumladan, yo‘nalishlar bo‘yicha “drayver” klasterlarni tashkil etish — dastlab Qoraqalpog‘iston Respublikasida, so‘ngra butun Orolbo‘yi mintaqasida ekotizimlarni boshqarishning samarali usullarini, ayniqsa, qishloq xo‘jaligida suvni va tabiiy resurslarni tejoychi samarali yangi texnologiyalarni qisqa fursatda joriy qilish;

iqtisodiy va moliyaviy innovatsiyalarni ishlab chiqish va joriy etish — texnologik innovatsiyalarni rag‘batlantirish hamda “yashil” ish o‘rinlari tashkil etish uchun zarur bo‘lgan bozor va narx-navo mexanizmlarini shakllantirish;

innovatsion siyosat va huquqiy innovatsiyalarni tatbiq qilish — tezkor va tizimli o‘zgarishlar uchun qulay muhit yaratish.

Barcha innovatsiyalar birgalikda Orolbo‘yi mintaqasida xatarlarni hisobga olgan holda, “yashil” va sirkulyar iqtisodiyotga hamda barqaror rivojlanishga o‘tish bo‘yicha yondashuvlarni belgilaydi. Mening fikrimcha Innovatsiya — bu tizimli o‘zgarishlar, yangilanishlar majmuasidir. Texnologiya, huquq, iqtisodiyot va hamkorlikda birlashganda, u faqat muamolarni hal etmaydi, balki yangi g‘oya va imkoniyatlar yaratadi. Orolbo‘yi mintaqasida innovatsiyalarni keng qamrovda tatbiq etish — bu hududni ekologik inqirozdan chiqarish bilan birga, uni kelajakda yashil iqtisodiyot markaziga aylantirishga zamin yaratadi.



Xulosa qilib aytganda, bugungi globallashuv davrida ekologik muammolar alohida bir davlat qamrovida emas, balki butun insoniyat qamrovida hal etilishi zarur bo'lgan dolzarb masalaga aylangan. Havo va suv ifloslanishi, iqlim o'zgarishi, biologik xilma - xillikning kamayishi va ekologik fojialar, xususan Orol dengizi muammosi xalqaro sheriksiz yechim topish imkonsiz. Shu bois xalqaro ekologik huquq tamoyillari davlatlar zimmasiga atrof - muhitni muhofaza qilish, ekologik xavfzislikni ta'minlash va barqaror rivojlanishga erishish kabi muhim majburiyatlarni yuklaydi. O'zbekiston Respublikasi ham xalqaro ekologik huquq normalarini milliy qonunchiligiga izchil tatbiq etib, Konstitutsiya, "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida" gi qonun hamda bir qator konvensiyalar va bitimlar orqali ekologiyani muhofaza qilishni ustuvor vazifa sifatida belgilab kelmoqda. Fuqarolarning tabiatga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish majburiyati, qonun buzilishlari uchun belgilangan javobgarlik choralari ekologik muvozanatni saqlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ekologik muammolarni hal etishda faqat davlat organlarining sa'y - harakatlari yetarli emas. Har bir fuqaroning ekologik ongini oshirishi, tabiatga mas'uliyat bilan munosabatda bo'lishi va kelajak avlodlar oldidagi burchini chuqur anglab yetishi juda muhimdir. "Yashil makon" kabi tashabbuslar, Orolbo'yi hududini tiklash bo'yicha olib borilayotgan istiqbolli ishlar va xalqaro maydonda ilgari surilayotgan tashabbuslar O'zbekistonning ekologik masalalarga jiddiy yondashayotganini ko'rsatadi. Demak, atrof - muhitni muhofaza qilish - bugungi kun ehtiyoji bo'lishi bilan bir qatorda, kelajak avlodlar uchun sog'lom va xavfsiz hayotni ta'minlashga qaratilgan eng muhim vazifalardan biridir. Bu yo'lda xalqaro hamkorlik, mustahkam huquqiy asos va har bir insonning shaxsiy mas'uliyati kabi qoidalar hal etuvchi ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
2. O'zbekiston Respublikasi Qonuni. Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida. 754 - XII - son, 09.12.1992.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi qarori, 25.01.2022-yildagi 41-son. "Orolbo'yi mintaqasini ekologik innovatsiyalar va texnologik hududga aylantirish bo'yicha qo'shimcha chora - tadbirlari to'g'risida".
4. Narzullayev O. X. Xalqaro ekologik huquq. Toshkent, 2009. - 8, 9, 11 - betlar.
5. Ismatova N. Karimova O. Davlat va huquq asoslari. 11 - sinf darsligi. Toshkent: "Yangiyo'l poligraph service", 2018. - 121 - bet.